

**O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIGINING
OQIBATLARI VA FOYDALARI**

Imomova Marjona Ermahmat qizi

TerDu Yuridik fakulteti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15678254>

Annotatsiya. Ushbu maqolada: O'zbekistonning JSTga qo'shilish bosqidchi, qonunchilikning JST mezonlariga moslashtirilishi, O'zbekistonning JSTdagi maqomi, O'zbekiston iqsodiyoti uchun foydalari va zararli oqibatlari borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, milliy birend, Xitoy, Viza.

Jahon Savdo Tashkiloti (World Trade Organization) 1947-yilda tuzilgan General Agreement on Tariffs and Trade (GATT) xalqaro bitimining davomchisi sifatida 1995-yilda unga a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini liberallashtirish, savdo va siyosiy aloqalarini tartibga solish uchun tashkil etilgan¹.

Jahon Savdo Tashkilotining eng yuqori darajadagi organi bo'lgan Vazirlar Konferensiyasi kamida har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladi. Joriy faoliyatni esa Bosh kengash, tovarlar va xizmatlar savdosi bo'yicha kengashlar, intellektual mulk masalalari bo'yicha kengash hamda sekretariatning doimiy qo'mitalari boshqaradi. JST talablarini bajarish jarayonida tashkilotning boshqa a'zolari uchun savdoda yuqori darajada qulaylik yaratish muhim hisoblanadi. Bu, avvalo, boj tariflarini pasaytirish va ichki bozorlarga xorijiy kompaniyalar kirishini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olishni nazarda tutadi. Maskur tashkilotga 164 mamlakat to'la a'zo, shu jumladan hozirgi vaqtda, O'zbekiston bilan bir vaqtda Efiopiya Eron Islom Respublikasi, Sudan, Jazoir, Suriya, Ozarbayjon, Iroq, Janubiy Sudan, Belarus, Turkmaniston, Livya, Serbiya, Andora, Bosnia va Gersagavina, Ekvatoryal Giviniya, Timor orollari, Komor orollari, Butan, va Vatikan kabi davlatlar JST da kuzatuvchi maqomidadur².

Jumladan 1995-yilning o'zida 75 ta davlat qo'shilgan bo'lsa, 1996-yilda 16 ta, 1997-yilda 4 ta, 1998-yilda 1 ta, 1999-yil 2 ta, 2000-yilda 5 ta, 2001-yilda 3 ta, 2002- yilda 1 ta, 2003-yilda 2 ta, 2004-yilda 2 ta, 2005-yilda 1 ta, 2007-yilda 2 ta, 2008-yilda 2 ta, 2012-yilda 4 ta, 20013-yilda 2 ta, 2014-yilda 1 ta, 2015-yilda 2 ta, 2016-yilda 2 ta davlatlar azo bo'ldi, bu davlatlarning iqsodiy o'sishini yaxshiladi, va tiranzit savdoni o'sishiga olib keldi, bu esa davlatlarning dengizga chiqish imkonini oshirib savdo aylanmasini yaxshiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning 3.1-bandida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, nufuzli xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan aloqalarni

¹ <https://globalfarmernetwork.org/uz/masalalar/world-trade-organization/>

² https://link.mail.beehiiv.com/ss/c/u001.2I5nId0Zn-qUDF_bjd9V4R8ZOQa7uQfwES7XqG9LSHcL4y_2PBLTG7AFdYUW30yzLBGzaAsfX7fJSzaodPW5FNj-9LOLXncgDP22Oc-jp37Y5_J1KxzNtriPx7FpZV4M1-iui3mcBCpdD9P_11A-c3Jg8l9dPa-pfrxb0bsYA1Gs8utaJ-pxvoTuSqCPFo5UjsxCmfW_TxnUB5w83PhZqFwAaHvBuPn2kz81n6h89AsFEHpVLHpb3QYE1FJ8fr6MfErxyAcqOwBgXeZXSrje9AD80zaKlwU53Qo6Qp3-yw/4c1/UoAl3b_yRZOdg-MoiFpu8w/h16/h001.WjEHUWXozJyCdnZXzDJjhfePVvA5Xa_WfxZfx2vNMm0

rivojlantirish, tashqi qarz siyosatini izchil yuritish va jalb qilingan xorijiy mablag'lardan samarali foydalanish vazifasi belgilangan.³

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-maydagi 339-qaroriga muvofiq, Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha Idoralararo komissiya tarkibi tasdiqlangan.

Ushbu qaror O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini tayyorlash ishlarini samarali tashkil etish va tizimli muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.⁴

O'zbekiston 1992-1993-yillarda JSTga a'zo bo'lish uchun ariza topshirgan. Oradan 25 yildan oshiq vaqt o'tganiga qaramay, ushbu jarayon hanuz davom etmoqda. Tarixga nazar tashlasak, boshqa davlatlarning JSTga qo'shilish jarayoni odatda 4-15 yil davom etgan. Shu sababli, O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalasiga davlatimiz katta ahamiyat qaratmoqda.⁵

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi natijasida mamlakat qonunchiligida kutilayotgan o'zgarishlarni tizimli tahlil qilish va xalqaro normalarga moslashtirish kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olishga hamda ortiqcha byurokratik jarayonlarni cheklashga yordam beradi. Shu bilan birga, jahon bozorlariga erkin kirish imkoniyatlarini chuqur o'rganish zarur. JSTga qo'shilgan davlatlar, avvalo, boshqa a'zo mamlakatlarning bozorlariga kirish huquqini qo'lga kiritadi, shuningdek, tashkilotning barcha a'zolariga taqdim etiladigan imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu imtiyozlar davlat chegaralari va mamlakat ichida savdo imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Chunki Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda bir xil import tariflari va bojlarining qo'llanilishi, shuningdek, har qanday kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydigan qonunlar va milliy rejim tamoyili mavjud. Bu tamoyil JSTga a'zo davlatlarni import qilinadigan tovarlar bilan bog'liq barcha tartiblarni milliy mahsulotlarga nisbatan bir xil tarzda qo'llashga olib keladi. Shuning uchun, JSTga qo'shilmasdan, davlatlar o'z eksportini tariflar va ichki tartibga solish nuqtai nazaridan cheklangan iqtisodiy munosabatlar asosida amalga oshiradi.

Savdolarning ochilishi va berilgan imtiyozlar, shu bilan birga, ichki sanoatga zarar yetkazish xavfini keltirib chiqarishi mumkin, chunki ichki bozor kuchli raqobatga duch kelishi ehtimoli bor. Xalqaro raqobat mahalliy sanoat tarmoqlarining daromadlari va rentabelligini pasaytirib, ularni o'z bizneslarini optimallashtirishga majbur qiladi, bu esa mahalliy korxonalar va tashkilotlarda ish haqining kamayishi yoki ish o'rinlarining yo'qolishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, savdoning o'sishi firibgarlik va bozor ulushini nohaq usullar bilan olish kabi axloqsiz ishbilarmonlik amaliyotlarining xavfini ham oshiradi. Xalqaro tajribada kompaniyalar raqobatbardosh tarmoqlarni bozordan siqib chiqarib, bozor ulushini oshirish uchun yuqori narxlar, demping⁶ va boshqa adolatsiz usullardan foydalanishadi⁷.

³ <https://lex.uz/docs/-3107036>

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-4831763>

⁵ <https://azkurs.org/jahon-savdo-tashkiloti-jst>

⁶ <https://uzpedia.uz/>

⁷ <https://scienceweb.uz/>

Xitoyning JSTga a'zolikni amalga oshirish tajribasi va oqibatlari bo'yicha iquyidagi xusuⁱⁱsiyatlarni alohida qayd etish mumkin.Xitoy bu borada chet el investorlarni jalb qildi.O'z homashyolarini va yarim tayyor mahsulotlarini tayyor mahsulotga aylantirish uchun xorij kompaniyalarini malum bir muddat foydaning yarimi yoki 4/3 qismini xorij kompaniyasiga ulushli qilib, darmatn kam foizini o'z ulishiga olib ish faoliyati va tartibini o'rganish bilan iqsodiyotini rivojlantirgan.Xitoy JSTga kirish uchun soliq va ichki tartib qoidalarga o'zgartirishlar kiritdi,davlatni yopiqlik siyosatini tugatti va o,z chegaralarini xorijliklarga ochdi.⁸

JST da quydagicha rivojlanish bosqichlari mavjud bular:

1)DAVOGAR DAVLAT ARIZA BERGANDAN KEYIN, DAVLAT ICHKARISIDAGI QONUNLARNI JSTNING QONUNLARIGA MOSLASHTIRISH
2)O'ZORO IKKI TARAF O'RTASIDA KELISHUVLAR VA MUZOKARALARNING BOSHLANISHI JST BILAN KELISHUVLAR
3)FORMAL KELISHUVLARNING IMZOLANISHI

Hozirgi kunda O'zbekiston 2-bosqichda ketmoqda va hozirga qadar davlatlar bilan shartnomalar va kelishuvlar imzolanyabdi Xitoy va Filippin bilan muzokaralar yakunlandi.⁹

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi orqali ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ijobiy jihatlar

1. Eksport ortadi, 2. Yirik korxonalar ochilishi, 3. Yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi, 4. Raqobat maydoniga chiqish, 5. Monopoliya cheklanishi, 6. Tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarilishi, Maxsulotlarning arzon bo'lishi.

Salbiy jihatlar

1.Yirik raqobat bozoriga tayyor bo'lmagan tadbirkorlik subeklari tugatilishi, 2.kichik tadbirkorlik subektlaridagi ishchi o'rni yo'qoladi, 3.Kichik tadbirkorlar o'z ish faoliyatini yakunlaydi va yirik korxonalar bilan birlashib ketishi mumkin, 4.Xorijning sifatli va arzon mahsulotlari bilan mahalliy ishlab chiqaruvchilarda mahsulotning sotilishida manfiy ko'rsatkichlar yuzaga keladi

O'zbekiston JSTga kirsra bozorlarda zamonaviy birja tizimi rivojlanadi. So'nggi yillarda mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Xususan, iqtisodiyotning muhim va ajralmas bo'g'ini bo'lgan birja mexanizmi sifat jihatdan yanada rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarildi. Birja, shaffof bozor infratuzilmasi sifatida, talab va taklif, sof raqobat, kotirovkalar¹⁰ kabi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Birja savdolarini tashkil etish va ularda ishtirok etishdan barcha tomonlar manfaatdor bo'ladi.¹¹

JST a'zolari o'rtasida bojxona tariflarini pasaytirish va boshqa savdo to'siqlarini olib tashlashga olib keladi. Bu xalqaro savdoni erkinlashtirib, mamlakatlar o'rtasidagi mahsulot va xizmatlarning oqimini yaxshilaydi. Natijada, iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi.

⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/>

⁹ <https://kun.uz/68568873?q=%2Fuz%2F68568873>

¹⁰ <https://dictionary.tsue.uz/>

¹¹ <https://kun.uz/news/>

JST nizomlari mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishni kafolatlaydi. Bu siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi, ichki va tashqi xavotirlarni kamaytiradi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlik ijtimoiy hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

JST a'zoli natijasida iste'molchilar keng tanlov imkoniyatiga ega bo'lib, sifatli va arzon mahsulotlarni xarid qilishlari osonlashadi. Bu esa aholi turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Erkin savdo siyosati nafaqat davlat iqtisodiyotini, balki alohida shaxslarning daromadlarini ham oshiradi. Ishlab chiqaruvchilar xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatini qo'lga kiritib, o'z mahsulotlarini kengroq miqyosda sotadilar.

Savdo imkoniyatlarining kengayishi bilan yangi sohalar rivojlanadi va qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Bu esa mamlakatdagi mehnat bozoriga ijobiy ta'sir qiladi va ishsizlikni kamaytiradi.

Savdo xarajatlarini qisqartirish JST nizomlari bojxona tartiblarini soddalashtirish va savdo xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan. Bu eksport va import xarajatlarini kamaytirib, savdo faoliyatini tejamkor qiladi.

Raqobatni oshirish va iste'molchilar manfaatini himoya qilish JSTning raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan siyosati milliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulot sifatini oshirishga undaydi. Mahalliy iste'molchilar uchun tanlov imkoniyatlari kengayadi, bu esa ularning manfaatlariga xizmat qiladi.¹²

Milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash JST orqali xalqaro bozorlar ochilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga eksport hajmini oshirish va o'z milliy brendini yaratish imkonini beradi. Bu davlat budjetiga ko'proq soliqlar tushishini ta'minlaydi va iqtisodiyotning barqaror o'sishini rag'batlantiradi.¹³

Texnologik rivojlanishni jadallashtirish JST a'zoli texnologiyalar almashinuvi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro bozorlarda muvaffaqiyat qozonish uchun ishlab chiqaruvchilar ilg'or texnologiyalarni joriy etishga intiladilar. Bu esa milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasiga hissa qo'shadi.

O'zbekiston JSTga hali to'liq a'zo bo'lmagan bo'lsada, avtomobil, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, tirikataj mahsulotlarida monopoliyalar cheklanib, chet el kompaniyalari va korxonalari bilan savdo aloqalari yaxshilanmoqda.¹⁴

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun iqtisodiyotning modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan bozor islohotlarini rivojlantirishda muhim imkoniyat va turtki hisoblanadi. Bu jarayon mamlakat oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi: import bojlarini pasaytirish, ichki bozorda chet el tovarlari bilan mahalliy mahsulotlarning teng raqobatini ta'minlash hamda ko'p tomonlama savdo muzokaralari orqali savdo siyosatini ijobiy yuritishdan iboratdir.¹⁵

Xulosa: Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini kuchaytirish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹² <https://kun.uz/news>

¹³ <http://nhrc.uz/oz/news/m12441>

¹⁴ <https://yuz.uz/uz/news>

¹⁵ <https://kun.uz/news>

Bu chet el tovarlari ichki bozorni egallab olishiga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi. O'zbekistonning xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, davlat iqtisodiyotining modernizatsiyasi va barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish O'zbekistonninh JSTga qabul qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi:

- xususan Xitoy tajribasidan keng foydalanishimiz ijobiy natijalarni berishi mumkin.
- Tadbirkolarning boshqa davlatlarda o'z maxsulotlaring yarmorkalari va ularning analoglarini namoish etishga imkoniyatlar yaratish,
- bojxona tizimida maxsulot olib kirish va olib chiqishda yengilliklar berilishi,
- tabirkorlarga kichik biznesi uchun o'z milliy brendlarini yaratishda amaliy yordam berish,

REFERENCES

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi
2. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidaginatq / Sh.M. Mirziyoyev. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b. birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish
3. 3.Jahon Savdo Tashkiloti darslik SH.S, Almosova: Taqrizchilar D.Umarxanova TDYU Xalqaro hiquq va inson huquqlari kafidirasi professori v.b y.f.d N.Gafurova Xalqaro hiquq va inson huquqlari kafidirasi dotsenti y.f.f.d-TOSHKENT 20023 124-bet
4. "The World Trade Organization: Law, Practice, and Policy" – Mitsuo Matsushita, Thomas J. Schoenbaum, Petros C. Mavroidis
5. "Understanding the WTO" – World Trade Organization (WTO)
6. "The Law and Policy of the World Trade Organization" – Peter Van den Bossche & Werner Zdouc
7. "Globalization and the WTO: A Critical Introduction" – Deborah Z. Cass
8. "The WTO and Developing Countries" – Edited by Bernard Hoekman, Aaditya Mattoo, Philip English
9. <https://xs.uz/uz/post/>
10. <https://lex.uz/acts/>
11. <https://lex.uz/uz/dos/-6480161>
12. <https://prezi.com/p/z29poxyyqgmlm/xalqaro-savdo-tashkiloti/>
13. <https://xs.uz/uz/post/zahon-savdo-tashkilotiga-azolik-ozbekistonga-nima-beradi>